

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Exploring the flexibility of adjective order in english: cognitive, pragmatic, and stylistic perspectives.....	873
J.G'.Numonova	
The role of podcasts and audiobooks in language education.....	877
J.G'.Numonova	
The influence of technological advancements on language assessment methods.....	881
O.Z.Dadajonov	
XX asr O'zbek va Nemis dramasida davr va qahramon talqini.....	885
S.A.Yusupova	
The evolution of politeness: a historical analysis of English novels.....	890
N.M.Merganova, N.A.Orifjonova	
Og'zaki nutqning o'ziga hos xususiyatlari.....	894
G.A.To'lanboyeva	
Muloqot va uning xususiyatlari.....	898
S.A.Xaqnazarova	
Abdulla sher ijodida tiplar an'anasi.....	901
N.M.Merganova	
Chet tilda og'zaki nutqni rivojlantirishning yo'llari.....	905
C.X.Azimova	
Категории «Вежливости» в речевых актах высказывания «Отказов», «Отрицаний» и «Удивлений» в русской и американской культурах.....	908
N.A.Komilova	
The representation of gender in English idiomatic expressions.....	911
Y.A.Nasirdinova	
Fransuz navoiyshunosligining global ahamiyati.....	915
Y.A.Nasirdinova	
Aleksandr Papas Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asari haqida: tasavvufiy yondashuv va tildagi maxfiy kodlar.....	919
S.To'lanov	
Turistik diskursning matnda ifodalanishi.....	923
S.To'lanov	
Turizm va reklama diskurslari: funksional va pragmatik yondashuv.....	927
Y.U.Abdurazzakov	
Zamonaviy sotsiolingvistik tadqiqotlar sharhi.....	931
I.T.Dehqonov, T.S.Mo'minova	
Fransuz tili darslarida maqol va matallar bilan ishlash usullari.....	934
D.S.Usmonova, Z.A.Anvarjonova	
Challenges in translating Uzbek literature to English.....	938
D.S.Usmonova, N.R.Rajabova	
Using ai in the field of studying english as a second foreign language.....	942
Sh.M.Yusufjonova	
Tarjima lug'atlarida milliy – madaniy xususiyatlar masalasi.....	946
S.A.Xaqnazarova	
Abdulla she'r ijodida g'oyaviy an'ana.....	949
N.A.Nizomova	
Makon yasovchi affikslarning o'zbek va ingliz tillardagi tarjimalari.....	953
G.Astonova, M.M.Kaharova	
O'zbekiston va Germaniyada ta'limni tashkil etishga oid leksik birliklar tavsifi.....	957
G.Astonova Oliy ta'lim tizimiga oid leksik birliklarning ifodalanishi.....	961
N.A.Nizomova	
Makon va zamon tushunchalar o'rtasidagi bog'liklar masalasi.....	966
S.I.Quziyev	
Turizm maqsadlari uchun ingliz tilini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish.....	970
Z.M.Yigitaliyeva	
Mualliflashtirish kategoriyasining matn doirasida o'rganilganligi.....	975
Z.M.Yigitaliyeva	
About the term of persuasion.....	979



UO'K: 81:374+811,512.144

MAKON YASOVCHI AFFIKSLARNING O'ZBEK VA INGLIZ TILLARDAGI TARJIMALARI

ПЕРЕВОДЫ АФФИКСОВ, ИСПОЛЗУЕМЫХ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ
ЯЗЫКАХTRANSLATIONS OF POSITIONAL AFFIXES IN THE UZBEK AND ENGLISH
LANGUAGES.

Nizomova Nargiza Aliyevna

Farg'ona davlat universiteti, "Ingliz tili amaliy kursi" kafedra o'qituvchisi

Annotatsiya

Ingliz va o'zbek tillarda makon va zamon ma'nosini ifodalovchi birliklarning tarjima qilishdagi ularning milliy tilshunoslik doirasida izohli tarzda tarjima qilish va leksik-semantik maydonda makon yasovchi affikslarning o'zbek va ingliz tilidagi tarjimalarini o'rgandim tahlil qilindi. Hamda, tahlil qilish sohasidagi olib borilgan tadqiqot ishlarini ham inobatga olib zaruriy misollar bilan keltirildi. Umuman olganda, makon yasovchi affikslarning mavjudligi tilshunoslikdagi so'z boyligini yanada oshib borishini ta'minlab beradi.

Аннотация

Перевод и объяснение выражений, выражающих значение пространства и времени на английском и узбекском языках в рамках национальной лингвистической специфики, а также представление переводов лексико-семантических аффиксов, формирующих значение места, на узбекском и английском языках, учитывались с упором на соответствующие исследования в этой области, с приведением необходимых примеров. В целом, наличие аффиксов, образующих пространство, способствует увеличению словарного запаса в лингвистике.

Abstract

The translation and explanation of expressions conveying spatial and temporal meaning in English and Uzbek within the framework of national linguistic specificity, as well as the presentation of translations of lexico-semantic affixes that convey location meanings in Uzbek and English languages, were considered with a focus on relevant research in this field, accompanied by necessary examples. In general, the presence of space-forming affixes ensures the further expansion of vocabulary in linguistics.

Kalit so'zlar: leksik -semantik maydon, makon va zamon, so'z yasovchi affikslar, tarjima, mustaqil so'z turkumlari, lugat, so'z, terminologiya, talaffuz.

Ключевые слова: лексико-семантическое поле, значение пространства и времени, словообразующие аффиксы, перевод, самостоятельные словосочетания, словарь, слово, терминология, произношение.

Key words: lexicon-semantic field, spatial and temporal meaning, word-forming affixes, translation, independent phrases, dictionary, word, terminology, pronunciation.

KIRISH

Muayyan til leksikasida bo'lgani kabi, uning terminologik tizimida ham o'z va o'zlashgan qatlam farqlanadi. Bu holat terminologik qatlamlar ijtimoiy ongda alohida-alohida tizimlar sifatida bo'lmasa-da, ammo ularning o'zaro variativ, sinonimik, omonimik, qolaversa, paronimik munosabatlarda ekanligi, shu bilan birgalikda, leksik, stilistik va frazeologik terminlarga qo'yiladigan aniqliq talabi, ayniqsa, termin o'zlashtirishning umumiste'mol leksikadan farqli ravishda ko'pincha xarakterga egaligi kabi qator muammolar mavjudligini ko'rsatadi.

Bu esa o'zlashmalarning shakliy, ma'noviy va grammatik xususiyatlarida ba'zan soxtaliklar vujudga kelishiga, chalkashlik, noaniqlik va boshqa salbiy holatlar yuz berishiga ham sabab bo'ladi.

Shuning uchun bu holatlarni jiddiy tadqiq qilish, vujudga kelgan muammolarni hal etish, terminologik mukammallikka erishish katta ahamiyatga ega. Leksik birlik bu- narsa, hodisalar, ularning belgilari va boshqalarni bildira oladigan so'z, so'z birikmasi yoki tilning boshqa birligidir.

Leksik birlik semantik birlik, so'zlarning bir so'z yoki ibora orqali ifodalangan sodda yoki murakkab tushuncha bo'lib, bu birlikning ma'nosini o'zgartirmasdan, hech biridan voz kechib bo'lmaydi.

So'zlarning biror maqsadda to'planib, tartibga solingan yig'indisi lug'at deyiladi. Lug'at tuzishning nazariy va amaliy tamoyillari haqidagi soha leksikografiya (grekcha lexicon - lug'at va grapho - yozaman) deyiladi.

Lug'at tuzuvchi mutaxassislar leksikograflar deyiladi. Lug'at tuzish tamoyillari va metodikasini ishlab chiqish, leksikograflar ishini tashkil qilish, lug'at tuzish uchun asos bo'ladigan kartotekalar tuzish, ularni sistemalashtirish va saqlash leksikografiyaning vazifasidir.

Lug'at - so'z xazinasi, undan o'rinli va maqsadga muvofiq foydalanish inson bilimni kengaytirish, lug'at boyligini oshirishda hamda fikrni to'g'ri va ravon ifodalashda muhim omildir. XX asrning ikkinchi yarmi XI asr boshlarida o'zbek va ingliz lug'atlarini o'rganishga yondashuvlar muammolarni hal qilishda biz tanlagan uchta sohada aks ettirilgan. Agar lug'atlar ma'lum darajada konservativ bo'lsa, ular o'ziga hos kamchiliklarini va qadr-qimmatini belgilaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Chunki I.R.Galperin yozganidek, "leksikografiya hamma narsani o'z ichiga olishi kerak, u o'z qudratini, qadrini va nutqda qo'llanish qobiliyatini yo'qotmagan tilda yashaydi, shuningdek, so'nggi paytlarda tug'ilgan, hayotiy va barqaror bo'lib chiqqan barcha yangi narsalarni aks ettira oladi." Talaffuz lug'atlari yozishda qat'iy bo'lmagan, ammo talaffuzda namoyon bo'ladigan morfologik o'zgaruvchanlik darajasining mavjudligini ko'rish mumkin.

Talaffuzda yozma ravishda standart sifatida belgilangan bir qator fe'llar o'zgaruvchan paradigmatic dizayndagi fe'llar bo'lib chiqadi.

Misol uchun, *leaned* /lent/ u /li:nd/, *leaped* - /lept/ u /li:pt/, *learned* - /le:nt/ u /le:nd/, *dreamed* - /dremt/ u /drempt/ u /dri:md/ talaffuz qilinishi mumkin. Talaffuz lug'atlarini tahlil qilish jarayonida leksik birliklarning nostandard paradigma shakllari mavjudligini yaqqol ko'rish mumkin. Chunki nostandard orfografik shakllar faqat "nostandard" deb talaffuz qilinadi va standart orfografik shakllar ingliz tilida ikkita (yoki undan ko'p) "standart" va "nostandard" talaffuz qilinadi.

Ayniqsa Amerika talaffuziga hos ingliz tilida buni yaqqol ko'rish mumkin. Ushbu misollardan ko'rinib turibdiki, dispersiya darajalari mavjud bo'lib, xorijiy tilda so'zlashuvchilar ingliz tilida leksikografik tahlil yordamida aniq topishlari mumkin, chunki bu xususiyat yozma matnlarda o'z aksini topmaydi, balki og'zaki nutqda tahlil qilish mumkin bo'ladi.

Lug'atlarni o'rganish zarur bo'lgan ikkinchi soha - lug'at va semantik tahlil katta va kichik vaqt oralig'ida siljishlar.

Masalan, tarixdan shuni kuzatish mumkinki, turli nashr etilgan yillardagi neologizm lug'atlari va turli nashr etilgan zamonaviy izohli lug'atlarni o'rganish orqali yangi so'zlar va ma'nolarni ishlab chiqishga erishib kelingan.

Ko'rsatilgandek, yangi so'zlar:

- 1) dastlab lug'atlarda qayd etilgan so'zlar o'z holicha ma'nolarda uzoq vaqt saqlanib qoladi;
- 2) so'zlar semantik va stilistik jihatdan rivojlanadi;
- 3) asta-sekin lingvistik periferiyaga o'tish yoki lug'atni tark etishi mumkin;
- 4) qo'llanishda keskinlikni boshdan kechirgan holda, tilda davom etaveradi, istorizmga aylanadi, shuningdek, metaforik tarzda qayta ko'rib chiqiladi.

XX asrning o'rtalaridan boshlab ingliz neologizmlari lug'atlari, XXI asr boshlarida esa ingliz tilining izohli lug'atlari olindi.

Misol qilib olinsa, "Smog" so'zi 1955 yilda lug'atda neologizm sifatida ro'yxatga olinganligi ko'rsatilgan "Dictionary of New Words" va 2005 yilda ham bir xil qiymatlarni saqlab qoldi ("polluted air that is a mixture of smoke and fog" - 1955 [ibidem] va "polluted air that is a mixture of smoke and fog" - 2005 asosan quyidagi ma'nolarni berishi tahliliy misollardan ko'rish mumkin. Huddi shu ta'rif: "a form of air pollution that is or looks like a mixture of smoke and fog, especially in cities" jumlasida ham berilgan.

Xuddi shu kabi belgilangan neologizm sifatida 1955 yilda Meri Reyferning lug'atida VIP qisqartmasi misolida ham ko'rsatilgan. So'z shakli, o'zaro bog'langan so'zlarning semantik tuzilishi va ularning nutqda ishlatilishi turli tillarda turlicha ekanligi tarjima jarayonida hisobga olinishi zarur.

Masalan, Vebsterning Ingliz tili uchinchi xalqaro yangi lug'atida "eye" so'zining 20 ta o'zbek tilining izohli lug'atida esa "ko'z" so'zining muhim ma'nolari ko'rsatilgan.

TILSHUNOSLIK

Ingliz va o'zbek tillarida o'zaro bog'langan so'zlar turli xil yasama so'zlarni hosil qiladi: *eyeglass, eye witness, eyeful, eyeless, to close ones eyes, up to ones eyes, in a pies eye, ko'z – ko'z qilmoq, ko'z olaytirmoq, ko'zi ochilmoq.*

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Ko'rinib turibdiki, ikki tildagi muvofiq so'zlar ma'noviy, valentlik va qo'llanish ko'lamiga ko'ra o'xshash va farqli jihatlarga ega bo'lishi mumkin ekan.

Leksik ma'no mavhum hodisa bo'lib, uning mohiyati, mundarijasini aniq tasvirlash uzoq yillar davomida muammo bo'lib kelar edi. XX asr tilshunosligining eng muhim yutuqlaridan biri leksik ma'noni uzvlarga parchalab o'rganish usulining kashf etilishi bo'ldi. Bu usul avval komponent analiz metodi deb, keyinchalik semik analiz metodi deb nomlandi (komponent – lot. *componentis* – "tarkib toptiruvchi", "qatnashuvchi", sema - yunoncha sema – "belgi"). Leksik ma'noning semalari voqelikka nisbat berib ajratiladi. Bunda semalar keng tushunchadan tor tushunchaga tomon ketma-ket belgilanadi.

Masalan, qo'l - leksemasi bosh leksik ma'nosining semalarini ajratishda avval "jonli predmet" tushunchasi (jonsiz predmetlarga zid qo'yib), keyin "kishi" tushunchasi (boshqa jonlilarga zid qo'yib) hisobga olinadi; shundan keyin "kishi tanasi", "kishi tanasining a'zosi" semalari belgilanib, so'ngra ta'riflanayotgan a'zo tananing qaysi qismida qanday joylashgani (yelkadan barmoq uchigacha), qanday vazifani bajarishi (ushlash) aniqlanadi; yuqorida sanalgan belgilardan har biri ta'riflanayotgan leksik ma'noning semalari hisoblanadi, leksik ma'no ana shu semalar asosida ta'riflanadi.

Yuqorida sanalgan belgilar (semalar) asosida qo'l - leksemasining bosh leksik ma'nosini 'kishi tanasining yelkadan boshlanib barmoq uchigacha davom etadigan, ushlarish vazifasini bajaradigan a'zosi' deb ta'rifladik.

Bu ta'rifni qo'l - leksemasining shu leksik ma'nosiga "O'zbek tilining izohli lug'ati" da berilgan ta'rif bilan qiyoslang: "odamning barmoq uchlaridan yelkasigacha bo'lgan qismi, a'zosi" dir.

Bu izohli lug'at tuzilgan yillarda leksik ma'no semik tahlil usuli bilan o'rganilmas edi; hozir qayta tuzilayotgan izohli lug'atda leksik ma'nolar semik tahlil asosida ta'riflanishi lozim; shunda oldingi nashrida yo'l qo'yilgan juda ko'p nuqsonlar bartaraf qilinadi.

Leksik ma'no tarkibida ajratiladigan semalar ideografik sema deb nomlanadi (yunoncha *idea* – "tushuncha", *graphike* – "yozuv").

Leksik ma'noga ta'rif ideografik semalar asosida tuziladi. Masalan, semik tahlil usuli bilan aka- leksemasining leksik ma'nosi tarkibiga kiruvchi quyidagi ideografik semalar aniqlanadi:

a) kishi, b) erkak, d) tug'ishgan (bir ota-onaning farzandi), e) yoshi katta.

Ushbu ideografik semalar asosida leksik ma'no ta'rifi quyidagicha tuziladi: 'bir ota-onaning yoshi boshqalaridan katta erkak farzandi'. Ko'rinadiki, leksik ma'no ta'rifiga ideografik semalarni to'liq va aynan kiritish shart emas, ulardan zarur va maqbul tarzda foydalaniladi.

Leksik ma'noning ideografik semalarini aniqlashda bevosita voqelikning o'ziga murojaat qilinadi, chunki leksema bilan (leksik ma'no bilan) ma'lum bir voqelik to'g'ridan to'g'ri nomlanadi, ma'lum bir ma'no ham shunday birlashtiriladi. Ideografik semalarni leksemalarni o'zaro qiyoslab belgilash boshqa maqsadlar bilan (masalan, leksemalarning leksik-semantik guruhlarini o'rganishda) amalga oshiriladi (Bu to'g'rida keyinroq gapiriladi)

XULOSA

Ushbu keltirib o'tilgan ma'lumotlarning yig'indisi sifatida ingliz va o'zbek tilida makon va zamon ma'nosini ifodalovchi birliklarning tarjima qilishdagi ularning milliy tilshunoslik doirasida izohli tarzda tarjima qilishini bugungi kundagi muhim masalalardan biri sifatida keltirib o'tishimiz mumkin bo'ladi.

Shuningdek, ushbu bobda Leksik-semantik maydonda makon yasovchi affikslarning o'zbek va ingliz tilidagi tarjimalarini o'rgandim va tahlil qilib chiqdim. Tahlil qilishda sohadagi olib borilgan tadqiqot ishlarini ham inobatga olinib zaruriy misollar keltririldi. Umuman olganda, makon yasovchi affikslarning mavjudligi tilshunoslikdagi so'z boyligini yanada oshib borishini ta'minlab beradi.

Shu bilan birgalikda ushbu leksik-semantik maydonda makon ifodalovchi mustaqil so'z turkumlarining o'zbek va ingliz tilidagi tarjimalari borasida ham ilmiy izlanish olib borildi. So'z turkumlarining leksik-semantik ma'nolarini anglatuvchi birikmalarning o'zbek va ingliz tilidagi

tarjimalari nooatiy ko'rinishda amalga oshiriladi. Ya'ni ma'nosini aytlatuvchi birliklarning so'z turkumlariga xos jihati ularning tarjima qilishidagi odatiy ko'rinishda bo'lmastligidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Кобозева И. М. Лингвистическая семантика / И. М. Кобозева. – М. : Эдиториал УРСС, 2000. – 352 с.
2. Бабушкин А. П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. – Воронеж: Изд-во ВГУ, 1996. – С. 38;
3. Палутина О. Г. Концепт «вода» в русской и английской концептосферах // Теория и практика германских и романских языков. -Ульяновск, 2002. -С. 90.
4. Воркачев С.Г. Наполнение концептосферы // Лингвокультурный концепт: типология и области бытования: монография. -Волгоград: Изд-во ВолГУ, 2007. -С. 34.
5. Асколдов С.А. Концепт и слово [Текст] / С.А.Асколдов // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. – М., 1997.
6. Карасик В.И. О категориях лингвокультурологии Языковая личность проблемы коммуникативной деятельности. –Волгоград, 2001.
7. Степанов Ю.С. Константы. Словар русской культуры. Опыт исследования. –М., 1997.
8. Lambalgen M., Hamm F. The proper treatment of events. Blackwell Publishing Ltd., 2005. – p.112.
9. Abulxayr M. Navoiy asarlarining izohli lug'ati. – Toshkent: "O'zME" Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 560 b